

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI AKADEMIYASI**  
**АКАДЕМИЯ ВООРУЖЕННЫХ СИЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**  
**THE ACADEMY OF THE ARMED FORCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**



**YO'RIQNOMA**

**SHONLI HARBIIY AN'ANALARNI ASRASH VA KO'PAYTIRISH YO'LIDA**  
**СОХРАНЯЯ И ПРИУМНОЖАЯ СЛАВНЫЕ ВОИНСКИЕ ТРАДИЦИИ**  
**PRESERVING OF THE GLORIOUS MILITARY TRADITIONS**



+998 (71) 268-59-82

@akaduz

academy@mil.uz

www.akad.uz



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI AKADEMIYASI




Manzil: O'zbekiston Respublikasi, 100075,  
Toshkent shahar, Mirzo-Ulug'bek tumani,  
PARKENT ko'chasi, 2 uy.

Mo'ljal: "Pushkin" metro bekati,  
Mirzo Ulug'bek tumani hokimiyati

E-mail: [academy@mil.uz](mailto:academy@mil.uz)

+ 998 (71) 268-17-20



O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga yuqori malakali ofitser kadrlarni tayyorlash va yetkazib berish bo'yicha yetakchi oliy harbiy o'quv dargohi sanaladi.



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI AKADEMIYASI


Yetakchi oliy harbiy ta'lim muassasasi,  
harbiy fanlar va pedagog kadrlarni  
uslubiy tayyorlaydigan markazdir



O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining yangi akademiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-apreldagi farmoniga muvofiq avvalgi harbiy ta'lim muassasasi – Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurti negizida o'zining ulug'vor harbiy an'analarini saqlab, 1994-yilda tashkil topgan birinchi Qurolli Kuchlar Akademiyasi va mamlakatimizning boshqa yetakchi ilmiy-o'quv muassasalari tajribalarini o'zida mujassam etgan holda tashkil topdi. Bugungi kunda akademiya harbiy ta'lim tizimida yetakchi o'rinni egallagan yagona harbiy ta'lim markazidir.



# Bilim yurtining tashkil etilishi. Bilim yurti Sovet hukumatining shakllanishi va urushdan oldingi davrda (1918 – 1941-yillar)



1918-yil 4-may kuni Rossiya Sovet Federativ Sotsialistik Respublikasi Sovet xalq komissarlarining avtonom respublikasiga “Turkiston harbiy okrugi nomining ta'sis etilishi to'g'risida” dekreti imzolandi. O'sha kezlarda Turkistondagi siyosiy va harbiy vaziyat favqulodda murakkab bo'lganligi bois, yosh Turkiston Sovet Respublikasiga bir vaqtning o'zida ham tashqi va ham ichki dushmanlar bilan shiddatli qurolli kurash olib borishga to'g'ri keldi. Qo'shinlarni tashkil etilishida ko'plab jiddiy muammolar mavjud bo'lganligi uchun ular barcha turdagi ta'minotda yetishmovchiliklarga duch kelishgan. Ayniqsa, malakali harbiy qo'mondonlik kadrlarning yetishmasligi sababli qo'mondonlik kurslarini tashkil etish qarori qabul qilindi. Turkiston Sovet Respublikasi Harbiy Komissariatining **1918-yil 12-iyuldagi 456-sonli** qarori bilan Toshkent shahrida Turkiston Sovet qo'mondonlik kurslarini tashkil etish bo'yicha komissiya tuzildi.





12  
-IYUL

1918

**Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilib yurtining RASMIY TASHKILTOPGAN KUNI.**


**Turkiston Sovet qo'mondonlik kurslari Rossiya imperatorligi Toshkent harbiy bilim yurtining birinchi jahon urushi arafasida Parkent ko'chasida qad ko'targan o'quv bazasi va uy-joy-kazarma fondi binolarida joylashtirildi.**




**K**urslarning davomiyligi to'rt oydan sakkiz oygacha bo'lgan. Kurs dasturi quyidagilarni o'z ichiga olgan: taktik tayyorgarlik, topografiya, artilleriya, muhandislik va pulemyot ishi, otish, ot minish, nizomlar, avtomobilsozlik, siyosiy iqtisod, geografiya, tarix, fizika asoslari, kimyo, elektrotexnika va amaliy mashg'ulotlar. 1939- 1940- yillarda bilim yurti bitiruvchilari Hasan ko'li va Xalkin-Gol daryosi yaqinida yapon samuraylari, Kareliya bo'yinida finlar bilan bo'lgan janglarda faol ishtirok etdilar. 1937-yilda maktab Toshkent harbiy bilim yurti deb qayta nomlandi.



# 1918-Tarixiy fotogalerereya 1941





**Bilim yurti Ikkinchi jahon urushi yillarida. Bilim yurti bitiruvchilarining fashizm ustidan g'alabaga qo'shgan hissasi (1941-1945-yillar)**

## 1941- yil 22- iyunda

Germaniyaning fashist qo'shinlari xoinlik bilan Sovet Ittifoqi chegaralariga bostirib kirdilar. Sovet xalqining nemis-fashist bosqinchilariga qarshi urushi boshlandi. Lenin nomidagi Toshkent piyodalar bilim yurti frontga yuborilayotgan ofitserlar tarkibini to'ldirish, bo'linmalarni shakllantirish, alohida o'qotar brigadalar tuzish va qo'mondon kadrlarni jadal tayyorlash markazi bo'lgan. 1941-yil iyun oyida o'quv dasturi bo'yicha leytenantlarning urushdan oldingi navbatdagi bitiruvi bo'lib o'tdi. Bilim yurtini tashkil topgan paytdan boshlab 1941-yilgacha bir necha ming piyodalar komandirlari, otliq askarlar, artilleriyachilar va o'rta darajadagi siyosiy xodimlar tamomladi. Bu piyodalar komandirlarining birinchi harbiy bitiruvi edi. Doimiy shtatdagi ofitserlar hamrohligida bitiruvchilar guruhlarini o'qchi qismlarini to'ldirish uchun frontga ketdilar.

Ularning ko'pchiligi 1941-yil iyun-iyul oylarida 310-,312- (196 kishi), 314- (196 kishi) va 316-o'qchilar bo'linmalariga turli rahbarlik lavozimlariga yuborilgan. Harbiy qismlar va tuzilmalar yosh ofitserlardan tashqari yana jangovar bo'linmalar ofitserlari – bilim yurti komandirlari va o'qituvchilari bilan to'ldirildi. 1941-yil oktabr-noyabr oylarida O'rta Osiyo harbiy okrugida ularni Moskva yaqinidagi shiddatli janglarga jo'natish uchun bilim yurtidan 34- va 35-alohida kursantlar brigadalarini tuzildi. Bilim yurti tezkor olti oylik ofitserlar tayyorlash dasturiga muvofiq, urushning dastlabki davrida armiya uchun olti mingdan ziyod ofitser kadrlarni tayyorladi, shu jumladan 1941-yil oktabr oyida tank qo'shinlari uchun bir guruh ofitserlarni hamda milliy kavaleriya qismlari uchun mahalliy millat vakillaridan bir guruh ofitserlarni tayyorladi. Umuman olganda, 1941-1945 fashizmga qarshi urush yillarida bilim yurtida 25 marta bitiruv o'tkazilib, 8 mingdan ziyod ofitser kadrlar tayyorlab berildi. Ikkinchi jahon urushi va urushdan oldingi davrgacha bo'lgan qahramonliklar uchun bilim yurtinining minglab kursantlari va bitiruvchilari orden va medallar bilan taqdirlanganlar. Bilim yurtini 50 dan ortiq bitiruvchilari Sovet Ittifoqi Qahramoni degan yuksak unvonga sazovor bo'lganlar, ularning ko'plariga unvonlar vafotidan keyin berilgan.





1993

**Harbiy mutaxassislarni tayyorlashning ko'p tarmoqli tizimiga o'tish**

Bilim yurti kursantlarni quyidagi harbiy mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlashni boshladi:

motoo'qchi, razvedka va artilleriya bo'linmalarining komandirlari; shaxsiy tarkib bilan ishlash bo'yicha bo'linmalar komandirlarining o'rinbosarlari.





1999-  
2017


# Fotogalereya

# BIRINCHI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUHLARI AKADEMIYASI (1994 - 2017- y.)



**2 - Sentabr  
1995**

**O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A. Karimov Qurolli Kuchlar Akademiyasini tantanali ravishda ochdi**



**A** kademiyaning asosiy vazifalari boshqaruvning taktika va operativ-taktika bo'g'inlari ofitserlari tarkibini tayyorlash, Qurolli Kuchlar rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish, mudofaa qurilishida olib boriladigan ilmiy-amaliy tadqiqotlarni o'zaro muvofiqlashtirish va ishlab chiqish, mamlakatda harbiy ta'lim sifat-samaradorligini oshirishdan iborat.



**T**inglovchilarni o'qitishda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari manfaatlariga javob beruvchi tajribaga ega bo'lgan mamlakatimizning yetakchi oliy ta'lim muassasalari hamda xorijiy mamlakatlarning tadqiqot markazlari ekspert va mutaxassislari jalb qilinmoqda.

Akademiyada harbiy sohada milliy xavfsizlikka tahdid va hurujlarni, zamonaviy urushlar va harbiy mojarolarning o'ziga xos xususiyatlarini, mudofaa qurilishining xorijiy tajribasini chuqur o'rganishga, shu asosda o'quv, ilmiy-uslubiy adabiyotlar va axborot-tahliliy materiallarni tayyorlashga, tinglovchilarning harbiy-ilmiy jamiyati faoliyatini amalga oshirishga qaratilgan tizimli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

**1994-  
2017**

**BITIRUVLAR  
AMALGA  
OSHIRILGAN**



**OFITSERLAR  
O'QISHNI  
TAMOMLAGAN**

**1160**

**A'LO  
BAHOLARGA  
TAMOMLAGAN**



**93**



**21**

**1994 - 2017**



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGI YILLARIDA

**31-Avgust  
1991**

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish  
1 sentabr - O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni



**14-Yanvar  
1992**

Respublika hududida joylashgan barcha harbiy qismlar, harbiy ta'lim muassasalari, tashkilotlar, idoralar va boshqa harbiy qurolli tuzilmalar davlat tasarrufiga o'tkazildi



**3-Iyul  
1992**

Harbiy Qasamyod matni va uni qabul qilish tartibi tasdiqlandi, «Mudofaa to'g'risida», «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida» qonunlar qabul qilindi



**26-Mart  
1993**

Qizil Bayroqli Qizil yulduz ordenli V. I. Lenin nomidagi Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurti (Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurti) deb yuritila boshladi



**5-Mart  
1995**

Mudofaa vaziri O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidan Toshkent OUQBYUga Jangovar Bayroq taqdim etdi




**T**oshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurti, harbiy san'atning alma materi sifatida, xilma xil hayotni boshidan kechirgan (ko'p asrlik tarixi davomida bilim yurtining nomi 18 marta o'zgartirilgan), ularning har biri o'z taraqqiyoti, o'zining eng yuqori cho'qqisi nuqtasiga ega edi. Aynan shu maskan, aynan mana shu dargoh bag'ri o'z davrining qahramonlarini yetishtirib bergan.



**72** QAHRAMONLAR



**>200** GENERALLAR



**155** BITIRUVLAR



**MINGLAB OFITSERLAR DAVLAT MUKOFOTLARI BILAN TAQDIRLANDILAR**



**>20** Bitiruvchilari MDH mamlakatlaridagi harbiy idoralarni boshqargan

Toshkent OUQBYU biti-ruvchilari deyarli barcha MDH davlatlarining Qurolli Kuchlarida xizmat qilgan va xizmat qilmoqdalar, ko'plari jangovar harakatlar, antiterror operatsiyalarida qatnashdilar va harbiy ishlar bo'yicha malakali muta-xassislar sifatida tanilganlar.



**1993**



**1994** Eski Akademiya



**2017** Yangi Akademiya



# YANGI AKADEMIYA

**Akademiyaning asosiy vazifasi-qo'shinlardagi boshqaruvning barcha bo'g'inlarida yuqori malakali ofitser kadrlarga bo'lgan ehtiyojni ta'minlash**



**M**illiy armiyani isloh qilishning eng muhim vazifalaridan biri — zamonaviy xalqaro standartlarga javob bera-digan yuqori harbiy-professional va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, tahliliy fikrlaydigan va harbiy holatlarni zo'r mahorat va samarali boshqarishga qodir qo'mondonlik qobiliyatiga ega bo'lgan va zudlik bilan vaziyatning murakkab sharoitlarida nostandart qarorlarni qabul qiladigan ofitser kadrlar tayyorlashning uzluksiz harbiy ta'lim tizimini yaratishdan iborat.

Urushning noan'anaviy shakllari va usullari, yuzaga keladigan tahdid va chaqiriqlarga o'z vaqtida va yetarli darajada javob berish zaruriyati Qurolli Kuchlar Akademiyasini tubdan o'zgartish bo'yicha choralar ko'rish dolzarbligini taqozo etmoqda.



**2017-yilda** Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurtining muqaddas harbiy an'analariga, o'sha yillarda faoliyat yuritayotgan Qurolli Kuchlar Aka-demiyasi va mamlakatimizdagi boshqa yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalarini qat'iy, ishonchli va samarali tajribalariga tayangan holda yangi Qurolli Kuchlar Akademiyasi tashkil qilindi. Bugungi kunlarda Akademiya harbiy ta'lim tizimidagi yagona yuqori salohiyatga ega bo'lgan muassasa sifatida e'tirof etilayotgan **harbiy ilm-fan markazidir.**




Eski  
Akademiya 1994



**T**inglovchi va kursantlarni tayyorlashda mamlakatimizdagi yetakchi oliy o'quv yurtlari va xorijiy mamlakatlar ilmiy markazlari mutaxassislari jalb qilingan. Ularning tajribasi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari ta'lim oluvchilarida katta qiziqish uyg'otmoqda.



# AKADEMIYA TUZILMASI



# 18

# KAFEDRALAR



**HARBIIY XAVFSIZLIK**



**HARBIIY SAN'AT**



**HARBIIY RAZVEDKA KAFEDRASI**



**JANGOVAR TA'MINOT**



**CHEGARA SAN'ATI**



**QUOLLANISH VA OTISH**



**TILLAR**



**ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI QO'SHINLARINI TAYYORLASH**

# QO'MONDONLIK

O'QUV JARAYONINI  
REJALASHTIRISH BO'LIMI

ДОКТОРАНТУРА БЎЛИМИ

PEDAGOG KADRLARNI  
MALAKASINI OSHIRISH  
MARKAZI

ILMIY VA IT VZVOD

FAKULTETLAR

KAFEDRALAR

TA'MINOT BO'LIMLARI

Kundalik hayot, o'quv jarayoni va ilmiy-tadqiqot faoliyatlari xizmatlar va bo'limlar (ta'minlash bo'linmalari) tomonidan ta'minlanadi



HARBIY BOSHQARUV  
VA LIDERLIK KAFEDRASI



MODDIY TA'MINOT



MILLIY IFTIXOR VA HARBIY  
VATANPARVARLIK KAFEDRASI



QK AXBOROT TEXNOLOGIYALARI  
VA KIBERXAVFSIZLIK KAFEDRASI



HARBIY PSIXOLOGIYA VA  
PEDAGOGIKA KAFEDRASI



TEXNIK TA'MINOT



JISMONIY TAYYORGARLIK  
VA SPORT



UMUMIY TAKTIKA




CHEGARA FAOLIYATI



TABIYIY FANLAR

# MUTAXASSISLARI TAYYORLASH



Bitiruvchilar Qurolli Kuchlarning bo'linmalari va qismlarida quyidagi lavozimlarda xizmat qilishlari ko'zda tutiladi:

**GURUH KOMANDIRLAR**

**TARBIVAVIY VA MAFKURAVIY ISHLAR  
BUYICHA KOMANDIR O'RINBOSARLARI**

**BATALYONLAR, BRIGADALAR  
XIZMAT BOSHLIQLARI**



**KURSANT**

**4 YILLIK TAHSIL**


**LEYTENANT**



**BAKALAVRIAT**

# HARBIY XAVFSIZLIK VA DAVLAT MUDOFAASI FAKULTETI

## CHEGARA QO'SHINLARI KADRLARINI TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH FAKULTETI



**Bitiruvchilar Qurolli Kuchlarning shtab va boshqa boshqaruv lavozimlariga tayinlanadi**



**2 YILLIK TAHSIL**

MAGISTRATURA

OLIY TA'LIM MUASSASASIDAN KEYINGI TA'LIM

## O'QUV-MODDIY TEXNIK BAZA





### Kursantlar uchun eng qulay o'quv sharoitlari yaratilgan

Keng va shinam o'quv xonalari va auditoriyalar eng zamonaviy texnologiyalar: televizorlar, interaktiv doskalar, planshetlar, kompyuterlar, videokonferensaloqa tizimlari, zamonaviy vizualizatsiya uskunalari bilan jihozlangan






**T**a'lim jarayonida eng yangi texnologiyalar, modellashtirish va simulyatsiya vositalaridan foydalanish aniq va nazarda tutilgan maqsadlarga to'laqonli erishish imkonini beradi. Bunday qulay ta'lim sharoitlarini yaratish maqsadlaridan biri, kursant o'zining muvaffaqiyati, intellektual barqarorligini his etishi bilan o'quv jarayonini o'zi samarali qiladi



# O'QUV-MODDIY TEXNIK BAZA



**T**a'lim jarayonini tashkillashtirishda bir vaqtning o'zida 3508 kishilik o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lgan beshta o'quv binosi, jami 165 ta auditoriyalar, ulardan: 13 ta ma'ruza sinfi, 14 ta maxsus sinf, 74 ta o'quv sinfi, 13 ta kompyuter sinfi, 11 ta mavzuviy sinf, 4 ta lingafon sinfi, 2 ta internet sinfi, 5 ta trenajyor sinfi, 6 ta laboratoriya sinfi va 3 ta uslubiy xonalari. Hamda 17 ta harbiy o'yinlarni o'tkazish sinfi, 2 ta jangovar tir, 1 ta lazertag harbiy o'yinlar majmuasi



## O'QUV-MODDIY TEXNIK BAZA



**KURSANTLAR YOTOQXONASI**



## SHINAM VA QULAY

**S**hinam yotoqxonasi kursantlarning yangi sharoitlarga tez moslashuvining muhim omillaridan biridir. Kursantlar bir necha yil davomida u yerda yashashlari va o'qishlari kerak bo'ladi. Akademiyada to'rtta yangi, keng va shinam kursantlar yotoqxonasi qurilgan bo'lib, ularda qulay yashash uchun barcha sharoitlar yaratilgan: to'shaklari bilan ikkita qulay krovat, ikkita ish stoli, shkaflar. Har bir qavatda Internet tarmog'iga to'liq ulangan o'qish xonalari, zamonaviy keng dushxona, hojatxona va yuvinish xonalari mavjud. Yotoqxonalarda kursantlar uchun kir yuvish xonasi, shuningdek, atelye mavjud.



## O'QUV-MODDIY TEXNIK BAZA



## DALA O'QUV BAZASI

Amaliyot – bo'lgusi  
mutaxassisni  
kasbiy tayyorlash  
tizimining muhim qismi

**D**ala bazasi – ta'lim jarayonini dala sharoitida tashkil qilish uchun mo'ljallangan maskan bo'lib, zamonaviy qulayliklarga ega o'quv-moddiy baza barcha mutaxassislik kursantlariga amaliy mashg'ulotlarda shug'ullanish imkonini beradi.

Eng yangi infratuzilma, shinam yotoqxonasi sifatli ta'lim olish uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlarni yaratmoqda. O'quv bazasida harbiy texnika parki, o'quv xonalari, yotoqxonalar, ovqatlanish xonasi, sport zali, tibbiyot punkti va madaniyat markazi mavjud.





## O'QUV-MODDIY TEXNIK BAZA

## Yangi Akademiyada

*jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish uchun zarur moddiy-texnik, tashkiliy va pedagogik sharoitlar yaratildi. Sport inshootimiz barcha zamonaviy talablarga javob beradi*

Sizga jamoaviy va yakka sport turlari, O'zbekistonning yetakchi sportchilarining mahorat darslari, jismoniy tarbiya kurslari va jismoniy tayyorgarlik testlarini o'z ichiga olgan keng qamrovli sport dasturini taklif etamiz. Dastur kursantlarni ishonch, hissiy nazorat, jismoniy chidamlilik va o'ta og'ir sharoitlarda harakat qilish qobiliyatini mustahkamlash orqali Qurolli Kuchlarda xizmat qilishga tayyorlashga yordam beradi.

# 15

dan ortiq sport turlari





**S**port insonlarni yaqinlashtiradi

**QIZIQQAN SPORT TURINGIZNI TANLANG !**



**Zamonaviy stadiao**



**Suzish havzasi**



**Trenajor zali**



**Sport zali**



**Skalodrom**




# HORIJIY HAMKORLIK




16 xorijiy davlatning

32 xorijiy Oliy harbiy ta'lim muassasalari



# Hozirda Akademiya da Tojikiston va Qirg'iziston mamlakatlari harbiy hizmatchilarini o'qitish yo'lga qo'yilgan



**7** mamlakat mutaxassislari tomonidan intensiv mashg'ulotlar tashkillashtiriladi



# QUROLI KUCHLAR AKADEMIYASIGA

## HARBIY - PROFESSIONAL YO'NALTIRISH

1



Доимий

**БОСҚИЧ**

(Доимий равишда)



Маҳалла раисининг ёшлар билан ишлаш бўйича ёрдамчиси (маҳаллабай)



Чақирувга қадар бошланғич тайёргарлик ўқитувчиси (умумтаълим мактабларда)



“Ватанпарвар” ташкилоти



www



Ҳарбий округлар, қисмлар ва ҳарбий таълим муассасалари

2

## ДАСТЛАБКИ САРАЛАБ ОЛИШ



**БОСҚИЧ**



Мудофаа ишлари бўлимлари



1 февраль-10 апрель



Ҳужжатларни тўплаш ва ўрганиш



1 босқич



Якка тартибда суҳбатлашиш



Бирламчи тиббий кўрик



3



июль-август

**БОСҚИЧ**



**DTM**

Давлат тест маркази



Тест номзодлар танлаган ҳудудларда ўтказилади


1 блок **Мажбурий фанлар**



Она тили ва адабиёт

10та

Савол



Математика

10та

Савол

30 та савол

Ҳар бир ✓ 1,1 балл

**Имтиёзлар**

Муддатли ҳарбий хизматни ўтаб бўлган фуқароларга

2012 йил 31 майдаги ПҚ-1765-сон

50%



“Темурбеклар мактаби” ҲАЛ битирувчиларига

2019 йил 28 июндаги ПҚ-4375-сон

**Имтиёзли диплом**

30%



**Квоталар**

2018 йил 14 майдаги ПҚ-3726-сон

Ҳарбий хизматчиларнинг оила аъзоларини ижтимоий қўллаб-қувватлаш

5%

ОХТМга танловсиз қабул



2019 йил 22 апрелдаги ПҚ-4296-сон

“Меҳрибонлик” уйи ва болалар шаҳарчасининг битирувчиларига

1%



# О'QISHGA KIRISH TARTIBI

**ҲАРБИЙ**  
 касбни танлашда  
 бевосита ёрдам  
 кўрсатиш

**ФАҲРИЙЛАР**  
 билан давра  
 суҳбатлари  
 ва учрашувлар

**АЪЛОЧИ**  
 битирувчилар  
 билан  
 тарғибот ишлари

**ҲАРБИЙ-ПРОФЕССИОНАЛ**  
 йўналтириш бўйича  
 ишлар самарадорлигини  
 мунтазам таҳлил қилиш

Мудофаа  
 ишлари  
 бошқармалари

Қабул  
 комиссияси

**11 апрель-  
 31 май**

Жисмоний тайёргарлигини баҳолаш

**2 босқич**

**100 М ЮГУРИШ**

14.0 < "5"  
 14.4-14.1 "4"  
 14.5-15.0 "3"  
 15.01 > "2"

**3 КМ ЮГУРИШ**

12.40 < "5"  
 13.20-14.40 "4"  
 14.00-13.20 "3"  
 15.1 > "2"

**ТОРТИЛИШ**

Маротаба

12 > "5"  
 10-11 "4"  
 8-9 "3"  
 1-7 "2"

Индивидуал-  
 психологик  
 ўрганиш

Яқуний тиббий  
 кўрик

Тарих

**10та**  
 Савол

**2 блок** Таълим йўналишига мос фанлар

$$x = \frac{-b \pm \sqrt{b^2 - 4ac}}{2a} f(x)$$

Математика

**30та**  
 Савол

Физика

**30та**  
 Савол

**90та**

Ҳар бир тўғри жавобга 3,1 балл

Ҳар бир тўғри жавобга 2,1 балл

**60 та савол**

Ҳар бир **✓** 3,1 балл

жами: савол

**Максимал балл 189,0**

2019 йил 3 майдаги  
 ПҚ-4306-сон Олимпиадада  
 1-3 ўринларни  
 эгаллаган шахслар

"Илғор сержант" номинацияси ғолиби

**20%**

2019 йил  
 26 февралдаги  
 ПҚ-4212-сон

Ҳуқуқни муҳофаза қилиш  
 органлари ходимларининг  
 фарзандларига

**5%**  
 ОХТМга тест  
 синовларисиз қабул

2017 йил  
 21 ноябрдаги  
 ПҚ-3402-сон


"Мард ўғлон"  
 давлат мукофоти  
 соҳибларига

**ОХТМга  
 имтиҳонларсиз қабул**

# TA'MINOT TURLARI

# MOLIYA TA'MINOTI

Kursantlarning barcha toifalari uchun



**Amir Temur Stipendiyasi**



× **1,75%**

**14%**

**Seksiya komandiri**

× **10,5%**

**Guruh komandiri o'rinbosari**

**7%**

**Vzvod komandiri yordamchisi**



**Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori (MHTEKM)**



**Bazaviy hisoblash miqdorini (BHM)**



**Sizning sog'ligingiz –  
bizning ustuvor  
vazifamiz !**



**24\7**

**TIBBIY TA'MINOT**




**Biz faqat sifatli tibbiy  
yordam ko'rsatamiz**

- ✓ Malakali shifokorlar
- ✓ Shoshilinch tibbiy yordam
- ✓ Dori-darmon vositalari bilan ta'minlash
- ✓ Zarur va o'rinli tibbiy muolajalar
- ✓ Kasalliklarning aniq va to'g'ri tashxisi
- ✓ Zamonaviy laboratoriya tekshiruvlari
- ✓ Zamonaviy uskunalar



# TA'MINOT TURLARI

## *O'ziq-ovqat ta'minoti*



### **O'zbek taomlari haqida 7 ta fakt**

- ⇒ Eng mazali non O'zbekistonda.
- ⇒ O'zbek taomlarining ko'pi ochiq olovda (o'choqda) pishiriladi.
- ⇒ O'zbekistonda yog'li va yuqori kaloriyali taomlarni iste'mol qilish odat tusiga kirgan.
- ⇒ Ovqatdan so'ng o'zbeklar issiq choy ichishadi.
- ⇒ O'zbeklar qo'y go'shti, mol go'shti va ot go'shtini (ot go'shtidan kolbasa – qazi) iste'mol qiladilar.
- ⇒ O'zbekistonda mehmonlar xushbo'y choy bilan va issiqqina non sindirib kutib olinadi, milliy taom-palov bilan kuzatiladi.
- ⇒ Maxsus choy marosimi (mehmonning ko'z oldida choy piyoladan choynakka uch marta qayta quyiladi, to'rtinchisida, choy mehmonga uzatiladi).



Oliy harbiy ta'lim muassasalari oshxonasi taomlarning xilma-xilligi, ularni tayyorlash va pishirish sifati bilan har qanday xo'randani, mijozni xursand qilishi mumkin. Bu yerda siz nafaqat milliy taomlarni, balki boshqa millat taomlarini ham tatib ko'rishingiz mumkin.

Kursantlarning ovqatlanishi asosiy oziq-ovqat va biologik faol moddalarga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotganini e'tiborga olib, o'sayotgan organizmning xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi.

Kursantning ratsioniga go'sht (mol go'shti, qo'zichoq, tovuq, baliq), kolbasa mahsulotlari, yorma (guruch, bug'doy yormasi, arpa yormasi, grechka, jo'xori), sut mahsulotlari (sariyog', kefir, sut), makaron va non mahsulotlari, sabzavotlar, yangi mevalar, asal, shakar, choy, sharbatlar, kakao, qahva kabilar kiradi.

Taomlar uzatilishi har xil bo'lib, – ertalab kursantlar bo'tqa, kechqurun esa ovqat hazm qilish uchun sabzavotli yengil ovqatlar tanavvul qiladilar. Kundalik ovqatlanish kaloriyasi miqdori 4000 Kkal dan ortiq.

## KIYIM-KECHAK TA'MINOTI

**K**ursantlar o'qish davomida harbiy va sport kiyimlari, jihozlar, to'shaklarning to'liq to'plami, maxsus va sanitariya-xo'jalik mol - mulki – kursantlarning meyoriy kundalik faoliyati va hayotini ta'minlash uchun zarur bo'lgan barcha narsalar bilan ta'minlanadi



**Qishki**



**Qishki**



### Tantanali

Saf uchun - tantanali va bayram marosimlarida ishtirok etganda (paradlar, bayramlar, taqdirlash marosimlari va boshqalar) foydalaniladi

### Kundalik

Jangovar tayyorgarlik va dala mashg'ulotlari bilan bog'liq bo'lmagan kundalik xizmat faoliyatlarida, shuningdek, o'quv xonalarida, sinflarda, auditoriyalarda bo'lganda xizmat vaqtida kiyiladi

### Dala kiyimi

Jangovar va texnik tayyorgarlik hamda dala mashg'ulotlari va jangovar navbatchilikda foydalanadi

# Dala o'quv bazasida olib boriladigan o'quv mashg'ulotlari uchun kiyim



## QUROL-ASLAHA



Kursantlar o'qish davomida zamonaviy umumqo'shin jangida jangovar mashinalar qurol-aslahalari, guruhiy va o'q-otar qurollarni qo'llash bo'yicha mustahkam nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'ladilar



# HARBIY TEKNIKA



Agar sen haqiqiy Vatan himoyachisi  
bo'lishga va o'z taqdiringni O'zbekiston  
Respublikasi Qurolli Kuchlari bilan  
bog'lamoqchi bo'lsang,  
unda seninig **tanloving aniq**

Если ты хочешь стать настоящим защитником  
Отечества и связать свою судьбу с  
Вооруженными Силами Республики  
Узбекистан, то твой

**выбор очевиден**

If you want to become a true defender of the  
Fatherland and link your fate with the Armed  
Forces of the Republic of Uzbekistan, then your  
**choice is obvious**



O'R Qurolli Kuchlari Akademiyasi  
Академия Вооруженных Сил РУ  
The Academy of The Armed Forces of the Republic of Uzbekistan



1234567890123456789012

1234567890123456789012

